



**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA  
XALQARO BAHOLASH TAJRIBASI:  
MUAMMO, YECHIMLAR VA  
ISTIQBOLLAR**

**XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI**

**Buxoro, 2022-yil, 29-mart**

*Бошланғич таълимда халқаро баҳолаш тажрибаси: муаммо, ечимлар ва истиқболлар*

---

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ**

**ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ ФАКУЛЬТЕТИ**

**БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ**

***БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО  
БАҲОЛАШ ТАЖРИБАСИ: МУАММО, ЕЧИМЛАР  
ВА ИСТИҚБОЛЛАР***

*ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН*

***МАТЕРИАЛЛАРИ***

**2022 йил, 29 март**

***БУХОРО – 2022***

илм-фан ва техника, технологиялар, ишлаб чиқариш тараққиёти, шахс эҳтиёжларининг ривожланиши, жамият талабларининг глобаллашуви таълим мазмунини узлуксиз янгилаб боришни талаб қилмоқда. Бошланғич синф ўқув хоналарининг янги замонавий ахборотлаштириш маркалари компьютерлар билан жиҳозланиши, интернет тармоғига уланишини таъминлаш энди мактабга қадам қўяётган кичик мактаб ёшидаги болаларнинг билим олишга бўлган қизиқиш ва интилишларини кучайтириб, уларнинг тезда мактаб муҳитига мослашиш имкониятини беради. Кўп миқдорли ахборотлар ёрдамида уларнинг дунёқараши ва тафаккурлари кенгайиб, мустақил фаолият кўрсатиш имконияти тутилади. Бунинг натижасида эса ўқувчиларда ўзига ишонч, дадиллик ва ўз-ўзини бошқариш хусусиятлари шакллана боради.

Маълумки, кичик мактаб ёшидаги бола учун ўйин фаолиятдан бирданига ақлий фаолият жараёнига кириши бирмунча қийинчиликларни вужудга келтиради. Билим эгаллаш иштиёқида бўлган ва моддий оламнинг турли қирраларига қизиқувчан бу ёшдаги болаларда билимларни ўзлаштириш жараёнида, албатта, толиқиш ҳолати рўй бериши муқаррар. Ана шундай вазиятни назарда тутган ҳолда, мактабда маданий кўникмаларни шакллантирувчи шароитлар яратиш мақсадга мувофиқдир. Бунинг учун мактабда қишки боғ, сув ҳавзаси ва дам олиш хоналари ташкил этиш лозим. Бу эса кичик мактаб ёшидаги боланинг она табиатга ижобий муносабатини шакллантириб, ҳар бир фаслнинг ўзига хос кўркини англаш ва табиат инъомларини идрок эта олишига ундайди. Шунингдек, мактабда дам олиш хоналарининг ҳам ташкил этилиши ақлий толиқиш рўй бераётган ўқувчида руҳий енгилланиш имконини берадиган қулай шароит ҳисобланади.

Мактабда ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ҳамкорлик муҳитининг таъминланиши билимларни ўзлаштириш жараёнини бир қадар енгиллаштиради. Яъни, бунда ўқитувчи ҳар бир ўқувчини яқиндан, яқка тарзда ўрганиш имконига эга бўлиб, унинг шахсидаги индивидуал хусусиятларини аниқлаш орқали ёндашиш йўллари белгилайди. Ўқитувчи ўқувчилар билан доимий суҳбатда, ҳамкорликда бўлиши натижасида, улар билан сирлашиш, тил топишиш ҳамда қизиқиш ва қобилиятларини аниқлаб йўналтириш имкониятига ҳам эга бўладилар. Бу эса, ўз навбатида таълим-тарбия жараёнида ўзлаштириш даражасининг яхшиланиши учун муҳимдир. Ҳозирги кунда ўқувчиларга замонавий билимларни бериш учун ўқитувчининг ўзи билимдон, бой педагогик тажрибага эга бўлиши лозимдир. Янги давр ўқитувчиси ижодкор, билимдон, изланувчан бўлиш билан бирга ҳар бир ўқувчи қалбига йўл топиб, таълим-тарбия жараёнида уларнинг ёш ва индивидуал хусусиятлари, имконият ва қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда, ижодий ҳамкорлик қила оладиган, келгусидаги ҳаётида ўз ўрнини тўғри танлашларида ижобий таъсир кўрсатадиган касб эгаси бўлиши керак. Бунинг натижасида ўқувчининг ўзлаштириши яхшиланиб, билимдонлик даражаси ривожланади.

Таълим жараёнини инсонпарварлаштириш сари ижобий қадамлар қўйилаётган бир шароитда ўқувчилар фаолиятини эркин, демократик ёндашув асосида ташкил этиш устувор масалалардан ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, таълимнинг истиқболдаги мазмунида ўқувчиларда ўзи қизикқан ўқув фанини чуқурроқ ўзлаштириши учун ўзи хоҳлаган ва ёқтирган ўқитувчидан таълим олишга интилиш кучаяди. Бу ҳолат иқтидорли, касб-хунарга лаёқатли ўқувчилар сафининг кенгайишини таъминлайди.

## **BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMI**

**M. J. Yarashov,  
BuxDU o'qituvchisi**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xalqaro baholash dasturi PIRLS dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga doir ma'lumotlar haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** PIRLS, PISA, TIMSS, xalqaro baholash dasturi, milliy ta'lim tizimi, o'qish savodxonligi.*

***Annotation:** This article discusses the work of the International Assessment Program PIRLS to compare the work done and the results of the national education system in different countries around the world.*

***Keywords:** PIRLS, PISA, TIMSS, international assessment program, national education system, reading literacy.*

***Аннотация:** В этой статье обсуждается работа Международной программы оценки PIRLS по сравнению проделанной работы и результатов национальной системы образования в*

**Ключевые слова:** *PIRLS, PISA, TIMSS, международная программа оценки, национальная система образования, грамотность чтения.*

Yurtimizning ma'naviy va ilmiy salohiyati rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA-International Association for the Evaluation of Educational Achievement) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

1958-yildan buyon ushbu tashkilot ta'lim sohasiga oid ko'plab mavzular bo'yicha o'ttizdan ortiq qiyosiy tadqiqotlarini o'tkazdi. Jumladan, matematika va tabiiy fanlar (TIMSS), o'qish (PIRLS), fuqarolik va fuqarolik ta'limi (ICCS), kompyuter va axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonlik (ICILS) kabi yo'nalishlarda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, umuman olganda ta'lim olish jarayonida erishgan yutuqlarini baholab kelmoqda.

Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek, o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniladi. Bu dasturning muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotganiga 2021-yilda 20 yil to'ladi.

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) - 4 va 8- sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun; The Programme for International Student Assessment (PISA) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmonida 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifati baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PIRLS dasturi 2001-yilda Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA-International Association for the Evaluation Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas'uliyat (Massachusetts, AOSh) Boston kollejiga yuklatilgan. Shuningdek, tadqiqot uchun topshiriqlarni tayyorlash Germaniya (Gamburg) ma'lumotlar markazida amalga oshiriladi.

Xalqaro baholash dasturi PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) dunyoning turli mamlakatlari milliy ta'lim tizimida o'qish savodxonligi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va natijalarni qiyoslashga yo'naltirilgan.

Tadqiqotlar 2001, 2006, 2011, 2016-yillarda o'tkazilgan bo'lib, 2021-yil tadqiqotning beshinchi davriyligi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotlar 2001-yildan boshlab uzluksiz qatnashib kelayotgan davlatlarning 20 yil davomida erishgan yutuqlarini baholash imkonini beradi. Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4- sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. 2016-yildan boshlab qo'shimcha tanlov asosida ePIRLS tizimi joriy qilingan bo'lib, u o'quvchilarning onlayn o'qish savodxonligini baholashga mo'ljallangan. Internet o'quvchilar uchun ma'lumotlar olishning boshlang'ich yo'li hamda maktab fanlari doirasida izlanishlar olib borish uchun markaziy manba hisoblanadi. 2021-yilda o'tkaziladigan PIRLS tadqiqotlarida dasturning birinchi marta raqamli formatga (digital PIRLS, lekin shu bilan birga an'anaviy qog'oz format bo'ladi) o'tishi hamda ePIRLS, 2016-yilda boshlangan internet muhitida boshqariladigan

onlayn o'qishni kompyuterda baholash ko'zda tutilmoqda.

PIRLS dasturida qatnashuvchi mamlakatlar soni yildan yilga ko'payib bormoqda. Masalan, dasturda 2001-yilda 35 ta mamlakat qatnashgan bo'lsa, 2006- yilda 40 ta, 2011-yilda 45 ta, 2016-yilda 50 ta mamlakat va navbatdagi 2021-yilda o'tkaziladigan tadqiqotda 60 ta mamlakatning ishtirok etishi rejalashtirilgan.

2016-yilda tadqiqotga Rossiya Federatsiyasining 42 ta hududidan 206 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 4577 ta boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etilgan bo'lib, tadqiqot natijalariga ko'ra Rossiya Federatsiyasi dunyo bo'yicha birinchi o'rinni egallagan.

PIRLSning o'qishdagi yutuqlarni baholash doiralari IEA tomonidan 1991- yilda o'qish savodxonligi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan foydalangan holda, ilk marotaba, 2001-yildagi tadqiqotlar uchun ishlab chiqilgan.

Shundan buyon PIRLSning baholash doiralari tadqiqotning har bir davri uchun, shu jumladan, 2021-yildagi tadqiqot davri uchun ham yangilandi.

PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir.

Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilishdan iborat.

Butun dunyo bo'ylab o'qish savodxonligining rivoji odamlarning nima sababdan o'qishlari bilan bevosita bog'liq. Umuman olganda, bu sabablar zavqlanish va shaxsiy qiziqish uchun o'qishni yoki ta'lim va jamiyat hayotida munosib ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ko'pgina yosh o'quvchilarning dastlabki mutolaasi aksariyat hollarda hikoya (masalan, hikoya to'plamlari yoki rasmlı kitoblar) yoki o'quvchilarga atrofıdagi dunyo haqida ma'lumot beradigan va savollarga javob beradigan ma'lumotli matnlardan iborat bo'ladi. Yosh o'quvchi uchun o'qish savodxonligining har ikki maqsadi ham muhim hisoblanadi. Shuning uchun PIRLS har bir o'qish turini baholashda matnlarni teng bo'lishni asosiy maqsad qilib olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 461-

2. Ярашов М. THE IMPORTANCE OF USING DIGITAL TECHNOLOGY IN PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS EDUCATION //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – T. 10. – №. 9.

3. Ярашов М. ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИŌ РНИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 5. – №. 5.

4. Ярашов М. BOSHLANG'ICH SINFI MATEMATIKA TA'LIMINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI IJODIY TASHKIL ETISH JARAYONI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 5. – №. 5.

5. YARASHOV M. BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TADBIQ ETISH METODIKASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

6. YARASHOV M. BOSHLANG 'ICH SINFI MATEMATIKA TA'LIMINI IJODIY TASHKIL ETISHDA TA'LIM TAMOIYILLARINING O 'RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – T. 1. – №. 1.

7. Jobirovich Y. M. Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2021. – T. 7. – C. 17-20.

8. Yunus Y. S. Features of Logical Thinking of Junior Schoolchildren //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10. – №. 1.

9. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 580-587.

10. Xolıqulovıch J. R. Using anthropometric units in "Esdaliklar" by Sadridin Ayniy //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 295-298.

O.X. Xamidov. YANGI BAHOLASH TIZIMI: XALQARO TA'LIM JARAYONIGA INTEGRATSIYALASHUVNI TA'MINLAYDI .....	3
Q.T.To'xсанov. TA'LIM SIFATI - O'ZGARISH VA RIVOJLANISH GAROVI.....	4

**1– SHO'BA: BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASHNING TATBIQ ETILISHI.....6**  
**СЕКЦИЯ 1: ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОЦЕНИВАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....6**

A.R.Hamroyev. BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI.....	6
N.T.Tosheva, N.Z.Qodirova. STEAM TA'LIMINING QO'LLANISHI, SAMARADORLIGI VA AFZALLIKLARI .....	7
Азимов Юнус Юсупович, Юсуфзода Шабнами Юнус. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ХАЛҚАРО БАҲОЛАШ (PIRLS) ТИЗИМИГА ТАЙЁРЛАШГА ДОИР АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	10
С. Мирзаев. ХАЛҚАРО ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ТАЛАБАЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШ ВА БАҲОЛАШНИНГ ТАТБИҚ ЭТИЛИШИ.....	12
N.T.Tosheva, Sh.SH.Murodova. XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH .....	14
A.Y. Alimov. O'QUVCHILARNI TIMSS DASTURI BO'YICHA TAYYORLASHNING AHAMIYATI VA TATBIQIY MASALALAR .....	16
Sh. Yo'ldosheva, M. Hamrayev. BO'LAKJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA ISHLASHGA TAYYORLASH .....	18
M. R. Hamroyeva, Z. R. Homidova. BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLIGIDA MASHQLARGA XALQARO BAHOLASH DASTURI BO'YICHA YONDASHUV .....	20
Sh.T. Qayumova. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'RNI .....	21
С.И.Холматова. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ХАЛҚАРО БАҲОЛАШНИ ТАТБИҚ ЭТИШДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ .....	23
Adizova Nodira Baxtiyorovna, Hasanova Mingjamol Husniddin qizi. XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH .....	25
M.B.Aliyeva. 4-SINFI "ONA TILI" DARSLARIDA GAP BO'LAKLARINI O'QITISHNING ROLI VA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAGI AHAMIYATI .....	27
M.H.Hakimova, M. Sh. Hamidova. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....	28
Sh.M. Farmonova, TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	30
Ro'ziyeva M.Y. BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH VA AMALIY YORDAM KO'RSATISH .....	31
N.Normurodova. XALQARO TADQIQOTLARDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH.....	32
Г.Т.Зарипов, С.Болтаев. БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМГА ЗАМОНАВИЙ ЁНДАШУВ.....	35
M. J. Yarashov. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAHOLASH TIZIMI.....	36

**2– SHO'BA: BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHDA PIRLS XALQARO TADQIQOTLARI.....39**  
**СЕКЦИЯ 2: МЕЖДУНАРОДНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ PIRLS ПО ОЦЕНИВАНИЮ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ .....**

U. A. Masharipova. PIRLS ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILAR O'QISH SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH METODLARI.....	39
Y.Y.Azimov, R.A. Qo'ldoshev. PIRLS HALQARO BAHOLASH TIZIMIGA KITOB O'QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI ERISHISH .....	41
Sh.U.Sariyev, "PIRLS" XALQARO TADQIQOTI: TARIXI, MAQSADI, METODOLOGIYASI, IMKONIYATLARI.....	43
F.M.Qosimov, G.Shoirova. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA ARIFMETIK MASALALARNING O'RNI .....	45